



SOLIQ TIZIMIDA ELEKTRON HUJAT AYLANISHIGA OID HUQUQIY YONDASHUVLAR

Axmedjanov Farrux Karimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-5932-6360

mr_farrukh@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunda soliq ma'muriyatchiligi doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, natijalarni yig'ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish bo'yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2023-yil 18-avgust kuni o'tkazilgan Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, tadbirkorlik sub'ektlari, byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

ПРАВОВЫЕ ПОДХОДЫ К ЭЛЕКТРОННОМУ ДОКУМЕНТООБОРОТУ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ

Ахмеджанов Фаррух Каримович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Сегодня в рамках налогового администрирования, оптимизации структуры налогов, их сбора, совершенствования механизма налогового учета и отчетности, правильного исчисления налогов, своевременной и полной уплаты, реализуются права налогоплательщиков, установленные налоговым законодательством и осуществляется контроль за соблюдением обязательств, распределение налоговых поступлений между бюджетами разных уровней, сбор и анализ результатов, реализация обширных мер по гармонизации налоговых отношений всех участников налогового процесса.. Также субъектам хозяйствования, своевременно уплачивающим налоги и осуществляющим деятельность с соблюдением требований законодательства, удобнее обеспечить реализацию приоритетных задач, поставленных в рамках открытого диалога Президента с предпринимателями, состоявшегося 18 августа 2023 года. в целях создания условий и их стимулирования путем внедрения цифровых технологий в налоговое администрирование, расширения налоговой базы и некоторых важных реформ, реализуемых в налоговой системе, изучается зарубежный опыт, разрабатываются научные и практические выводы по его применению в нашей стране и предложения.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, субъекты хозяйствования, бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговое администрирование, субъекты предпринимательства, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налог, ставка налога, преференции.

LEGAL APPROACHES TO ELECTRONIC DOCUMENT CIRCULATION IN THE TAX SYSTEM

Akhmedjanov Farrukh Karimovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. Today, within the framework of the tax administration, optimization of the structure of taxes, their collection, improvement of the mechanism of tax accounting and reporting, correct calculation of taxes, timely and full payment, the right of taxpayers established in the tax legislation and monitoring compliance with obligations, distribution of tax revenues between budgets of different levels, collection and analysis of results, implementation of extensive measures to harmonize tax relations of all participants in the taxation process are being conducted. Also, it is more convenient for business entities that pay taxes on time and operate in compliance with legal requirements to ensure the implementation of the priority tasks set in the framework of the open dialogue of the President with entrepreneurs held on August 18, 2023. In order to create conditions and encourage them, by introducing digital technologies to the tax administration, expanding the tax base, and some important reforms implemented in the tax system are studied, foreign experience, scientific and practical conclusions on its application in our country, and proposals are developed.

Keywords: stability rating, business entities, budget policy, crisis, budget, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, tax, tax rate, preferences.

Kirish.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining amaliyotidan ko'rinib turibdiki, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish asosida qonunchilikka rioya etish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, ko'proq daromadlarni samaraliroq yig'ish, shaffoflik va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, inson omili aralashuvini kamaytirish hamda katta ma'lumotlar oqimini moslashtirishni ta'minlaydi. Soliq tizimida raqamlashtirishni rivojlantirish orqali soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi adolatli raqobat muhitini ham samarali rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston ham rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib Hukumat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni elektron interaktiv xizmatlar asosida tashkillashtirishga o'tmoqda. Soliq tizimida ham soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni raqamlashtirish orqali takomillashtirmoqdalar. Raqamli texnologiyani o'zlashtirish muvaffaqiyatli va samarali soliq islohotlarini amalga oshirishga, raqamli iqtisodiyotning bexato soliqqa tortilishini ta'minlashga va rioya qilish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga hamda inson omilini qisqartirishga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Kukarina (2004) o'z tadqiqotlarida, birinchi navbatda, tadqiqotning yangi predmeti - menejment sohasiga faol joriy etilayotgan va qonunchilikni birlashtirishni talab qiluvchi elektron hujjat ekanligini ta'kidlagan. Bu sohadagi birinchi qonunlar faqat XX asrning 90-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan. Shuning uchun ilmiy ishlarda elektron hujjat hodisasini tushunish asta-sekin undan foydalanish tajribasini to'plashdan boshlanishini qayd etgan. Ularda mavjud

ta'riflarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, "elektron hujjat" va "elektron imzo" yangi tushunchalarini shakllantirish jarayoni hujjat aylanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan.

Chervatyuk (2020) elektron hujjat aylanishining zamonaviy jarayonlardagi talablarini tahlil qilgan va quyidagilarni amalga oshirgan:

1) zamonaviy elektron arxivlar va elektron hujjat aylanish tizimlarini, mavjud mahsulot ma'lumotlarini boshqarish tizimlari imkoniyatlarini, elektron hujjatlardan foydalanish huquqlarini differentsiallashtirish tamoyillarini qiyosiy tahlil qilgan;

2) nodavlat notijorat tashkilotlarining texnik hujjatlari elektron arxivi va elektron hujjat aylanishi uchun ma'lumotlar ombori modelini ishlab chiqqan;

3) axborotni himoya qilishning zarur darajasiga ega bo'lgan NNTlar o'rtasida elektron texnik hujjatlar almashinuvi modeli va algoritmlarini ishlab chiqqan;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari texnik hujjatlari elektron arxividan ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqqan, bu esa texnik hujjatlarning yangi nusxalarining asl nusxalarini yaratish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bergan;

5) texnik hujjatlar elektron arxivi va nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron hujjat aylanishi ma'lumotlar ombori axborot tizimi (AT) uchun tizimli-funksional echimni ishlab chiqqan;

6) laboratoriyada AT algoritmlarining ishlashi va samaradorligini tekshirgan va elektron hujjat aylanish tizimida arxivlash zarur jarayon ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Kortikov (2013) ta'kidlashicha axborot resurslarini integratsiyalash usullarini ishlab chiqish axborot tizimlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. So'nggi yillarda ma'lumotlar manbalarining yuqori darajada turli xilligi tufayli u ayniqsa katta e'tiborni jalb qila boshladi. Har xil turdagi elektron hujjatlarning mavjudligi elektron hujjat aylanish tizimini juda dolzarb axborot tizimiga aylantirdi. Olim mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan va elektron hujjat aylanish tizimlarining tasnifini tuzgan. Elektron hujjat aylanishi tizimining ishlashi uchun asosiy tamoyillar va talablarni aniqlagan. Ilmiy ish doirasida sohasining strukturaviy modelini yaratgan. Strukturaviy modelning birgalikda ishlashini miqdoriy baholashni ta'minlaydigan raqamli usullar va tegishli algoritmlarni ishlab chiqqan.

Jarkov (2014) ta'kidlashicha, elektron hujjat aylanish tizimi axborot texnologiyalari asosida tashkilotning ichki va tashqi hujjatlar aylanishini tartibga soladi va tartibli boshqaradi.

Stolbovning (2007) fikricha elektron hujjat aylanishi – bu me'yoriy–huquqiy hujjatlar, standartlar asosida elektron hujjatlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, qabul qilish va yuborish. Shuningdek, ularni aloqa tarmoqlari orqali ishonchli va xavfsiz yuborilishini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodchi olim Bisultanov (2019) o'zining ilmiy ishida soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqqan. Olim soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun soliq mu'murchiligi kategoriyalarini kompleks tahlil qilgan va yangi kategoriyalar joriy qilingan; soliq organlari va soliq to'lovchilarning munosabatlarini tizimlashtirish orqali soliq ma'murchiligining instrumentlari va usullarini o'rgangan; uchinchidan Rossiya hududlaridagi zamonaviy soliq ma'murchiligining holatini o'rgangan va sifat darajasini baholagan; to'rtinchidan, soliq ma'murchiligini rivojlantirishning raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anviy va innovatsion usullardan foydalangan holda yo'nalishlarini aniqlagan hamda tavsiyalar ishlab chiqqan; beshinchidan, raqamli soliq tizimi hisobi va soliq ma'murchiligining yagona modelini ishlab chiqqan, hamda foydalanish jarayonidagi samaradorligini aniqlagan.

Shreyter (2015) elektron hujjat aylanishi sohasini kengroq o'rgangan. Korxonalarda qog'oz hujjat aylanishi jarayonlarini tahlil qilib bu jarayonlardagi bir qator kamchiliklarni keltirib o'tgan. Jumladan, qog'oz hujjatlarning saqlash jarayonlari va ular uchun katta miqdorda joy hamda tegishli sharoitlar yaratilishi kerakligini katta xarajat sifatida e'tirof etgan. Ikkinchi navbatda, qog'oz hujjatlarni qayta ishlash yoki tahlillar o'tkazish jarayonining qiyinligi va ko'p vaqt sarflanishi bilan uning samarasizligini aniqlagan. Natijada elektron hujjat aylanish

tizimining joriy qilinishini tabiiy zarurat sifatida tariflagan. Hamda elektron hujjat aylanishiga bu – korxonada elektron hujjatlari bilan ishlaydigan yagona mexanizm va qog'ozsiz ishlash jarayonini joriy qilish deb ta'rif bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi barcha tizimlar kabi xorij tajribasi va olimlar fikrlariga yondashgan holda ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan tajribalar doirasida barpo etilgan. Bu borada bir qancha olimlarning fikrlarini keltirishimiz mumkin.

Ayrim iqtisodchi olimlar, xususan V.S.Ukolov o'zining ilmiy ishida bajarilgan yagona axborot makonini yaratish masalalari va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlarida axborotni tashkiliy, ma'muriy, texnik va dasturiy himoya qilish usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, elliginchi yillarning o'rtalaridan boshlab mamlakatimizda va xorijda muhim ahamiyatga ega. Umumiy va maxsus maqsadlar uchun avtomatlashtirilgan tizimlarda axborotni autentifikatsiya qilishni amaliy ro'yobga chiqarish imkonini beradigan nazariy tajriba to'plandi.

Olim tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, elektron hujjat aylanishini tashkil etishning mavjud tizimlari tahlil qilingan. Elektron hujjat aylanishi tizimlarida signal modellari sifatida maxsus funksiyalarni, xususan, ortogonal funksiyalarni va ko'phadlarni iqtisodiy jihatdan asosli qo'llash imkoniyatlari tahlili o'tkaziladi.

Aniqlangan imkoniyatlar doirasida elektron hujjat aylanish tizimlarida xabarlarini autentifikatsiya qilish uchun zarur parametrlarni yaratish metodologiyasi ishlab chiqildi, xususan, elektron hujjatlarda elektron raqamli imzoni yaratish uchun konvolyusiya funksiyasini yaratish metodologiyasi ishlab chiqildi.

Tashkilotning iqtisodiy samaradorligini oshirishning yangi elementi sifatida axborot oqimlarining o'zaro ta'siri sxemasi tahlil qilinib, elektron kotibiyatdan foydalangan holda axborot almashinuvi sxemasi taklif etiladi. Oliy ta'lim muassasasining elektron hujjat aylanishi tizimining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan modellarning iqtisodiy va matematik jihatdan muvofiqligi baholandi va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi. Oliy ta'lim muassasasining elektron hujjat aylanishi tizimining iqtisodiy samaradorligi baholandi (Уколов, 2009). Olimning bu boradagi ishlari hozirgi kunga kelib keng miqyosda iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Iqtisodchi olim Lelina (2009) zamonaviy axborot texnologiyalarining globallashuvi jarayonida elektron hujjat aylanish tizimining muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Olim o'zining ilmiy ishi orqali quyidagilarni amalga oshirgan bajargan:

geografik jihatdan taqsimlangan tuzilmaga ega tashkilotlarda boshqaruv tizimi va hujjat aylanishining xususiyatlarini o'rgangan;

idoralararo ish jarayonining zamonaviy usullarini, jumladan boshqaruvni hujjatli ta'minlashning amaldagi me'yoriy-uslubiy bazasini tahlil qilgan;

zamonaviy elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan;

hujjatlar bilan geografik taqsimlangan ishlarni tashkil etish tamoyillarini ishlab chiqqan.

Bu olim ham boshqa olimlar kabi elektron hujjat aylanish tizimining rivojlanishi uchun katta hajmda izlanishlar olib borgan hamda takliflar bergan.

Iqtisodchi olim Shukayev (2006) o'zining ilmiy ishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yiriklashuvi hamda boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvida ularni boshqarishning eng optimal echimi jarayonlarda elektron hujjat aylanish tizimini joriy qilishni e'tirof etgan.

Olim o'zining ilmiy ishida korporativ boshqaruvning maqsad va vazifalarini, korporativ boshqaruv sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilgan va shu asosda elektron hujjat aylanishining moliyaviy biznes-jarayonning yordamchi operatsiyalari bilan o'zaro aloqasi sxemasini ishlab chiqqan.

Ishlab chiqarish birlashmasi korxonalarini boshqarish, shuningdek elektron hujjatlar oqimining yordamchi xo'jalik operatsiyalari - korporativ xo'jalik operatsiyalari jarayonlari bilan o'zaro ta'siri sxemasini yaratgan; korxonalarda sof foyda va sof pul oqimi mezonlari bo'yicha qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirishning optimallashtirish iqtisodiy-matematik modellarini ishlab chiqqan va tadqiq etgan; korporativ moliyaviy resurslarni boshqarish tizimida boshqaruv qarorlarining asosligini oshirish uchun korporativ elektron hujjat aylanish tizimi vositalariga qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirishning iqtisodiy va matematik modellarini kiritgan; korxonalar o'rtasidagi moddiy va moliyaviy oqimlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun yordamchi biznes-jarayonlarning hujjat aylanishini saqlash xarajatlarini baholash tizimidan foydalangan holda umumiy xarajatlar mezoni bo'yicha korporativ xo'jalik operatsiyalarini boshqarishni optimallashtirishning iqtisodiy va matematik modellarini yaratgan; boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirish uchun elektron hujjat aylanish tizimi asosida vertikal integratsiyalashgan korxonalarda ta'minot zanjirini operativ boshqarish tizimida korporativ xo'jalik operatsiyalarini monitoring qilish modellarini ishlab chiqqan.

Nguen Din Xing (2012) o'zining ilmiy ishida elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi bilan bir qatorda bu hujjatlarning haqiqiylikni tasdiqlab beradigan markazlarining joriy qilinishini zarur jarayon sifatida e'tirof etgan.

Qog'oz shaklida hujjat aylanishi ikki o'zaro munosabatga kirishuvchi tomonlar munosabatlarini tartibga solsa, elektron hujjat aylanishida uchinchi tomonning paydo bo'lishiga ehtiyojni yuzaga keltirishini isbotlagan.

Elektron hujjat aylanishida elektron raqamli imzoning haqiqiylikni isbotlash zaruriyati doimiy mavjud bo'lishi isbotlangan.

Bundan tashqari, olim o'zining ilmiy ishida elektron hujjat aylanish tizimining o'ziga xos xususiyatlari va muammoli tomonlarini batafsil o'rgangan, elektron hujjat aylanish tizimining joriy qilinishida uchinchi tomonning bo'lishi shartligini isbotlagan va uchinchi tomon elektron hujjat aylanish tizimining ratsional sxemalarini taklif qilgan.

Olim uchinchi tomon texnologiyalaridan foydalangan holda elektron hujjat aylanishi tizimini tashkil etish modelini ishlab chiqqan va simulyatsiya modellashtirish yordamida uning xususiyatlarini o'rgangan, yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda elektron hujjat aylanish tizimi loyihalashtirish jarayonida uchinchi tomon tizimining ko'p bo'lishi muhimligini ham isbotlab bergan.

Samotuga (2017) o'zining ilmiy avtoreferatida elektron hujjat aylanishining himoyalaniishi va boshqa bir qator boshqa tomonlariga etibor bergan. Imzo beruvchining psixofiziologik holatiga qarab imzoni ko'paytirish parametrlarini o'zgartirish qonuniyatlarini tahlil qilishga asoslangan subyektlarning qo'lda yozilgan tasvirlarining matematik modelining yangiligi taklif qilinganligi bilan ajralib turadi.

Statistik bog'liqlikdan foydalanish, imzo parametrlarining normal holatdagi qiymatlari asosida o'zgartirilgan holatdagi imzo parametrlarini hisoblash uchun koeffitsientlarni qo'llash, bu uzoq tajribalarni oddiy hisoblash protseduralari bilan almashtirish o'zgartirilgan holatda imzo shablonini olish imkonini beradi. Qo'lda yozilgan tasvirlarni ko'paytirish xususiyatlarini tahlil qilish asosida imzolovchining psixofiziologik holatini aniqlashning ishlab chiqilgan usulining yangiligi PFC tasnifi uchun ko'p o'lchovli Bayesian maksimal ehtimollik funksiyalarining sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanish taklif qilinganligi bilan ajralib turadi, imzoni tekshirish bosqichida imzolovchining PFC ni baholash imkonini beradi.

Olimning taklif etayotgan imzoni tekshirish usulining yangiligi, uning psixofiziologik holatini hisobga olgan holda, qo'lda yozilgan tasvirlarni ko'paytirish xususiyatlarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, u ko'p o'lchovli Bayesian maksimal ehtimollik funksiyalaridan

foydalanish taklif qilinganligi bilan ajralib turadi. Imzo qo'yuvchi, bu qo'l yozuvi xususiyatlari orqali shaxsni tekshirishda aniqlikni oshirishga imkon beradi.

Axborot tizimlarida gibrid hujjatlarni yaratish algoritmining yangiligi hujjatni imzolash vaqtida ma'lumotlar egasining shaxsini tekshirish imkoniyati bilan qo'lda yozilgan tasvirlarni ko'paytirish xususiyatlarini tahlil qilish asosida farqlanadi. Uning psixofiziologik holatini baholash uchun blokni joriy etish, bu keyinchalik uning yaxlitligi va haqiqiyligini tasdiqlash, shuningdek, yaratuvchining adekvat holatda ekanligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi (Camotyra, 2017). Bu olimning fikrlari asosan elektron hujjat aylanishida xavfsizlik va ma'lumotlarning ishonchligiga qaratilgan.

Petrov (2003) elektron hujjat aylanish tushunchasini ishlab chiqarish korxonalarini misolida tadqiqot qilgan va bir qator yondashuv hamda yangiliklar kiritgan. Ishlab chiqarish tashkilotlarida zamonaviy elektron va axborot texnologiyalaridan foydalanishda korxonada boshqaruvi xususiyatlarini aniqlagan va yaxshilash bo'yicha tavsiyalar bergan.

Innovatsion axborot tizimlarining zamonaviy tashkiliy shakllari va ularni yaratish usullarini o'rgangan, ularning tuzilmalarini qurish va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish tamoyillarini oydinlashtirgan. Korxonada va tashkilotlar uchun hujjat aylanish tushunchasiga aniqlik kiritib bergan. Iqtisodchi axborot va elektron texnologiyalardan foydalangan holda boshqaruv tizimlarini baholashning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlagan; ularning tuzilmalari va jarayonlarini tartibga solgan; korxonada boshqaruv tizimlarini moslashuvchan modellashtirish usullarini ishlab chiqqan; elektron texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimlarini yaratgan va joriy etishning tashkiliy shartlarini va ularning samaradorligini asoslagan.

Shuningdek, bu borada o'zbek tadqiqotchilaridan H.X. Nasrulloev "Soliq ma'murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish istiqbollari" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida izlanishlar olib borgan. Olim o'zining ilmiy izlanishlarida soliq ma'murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda virtual kassalar hamda elektron hisobvaraqa-faktura ma'lumotlarini qayta ishlash va ular asosida soliq ma'murchiligini amalga oshirish jarayonini avtomatlashtirishni joriy qilish kerakligiga xulosa bergan. Yashirin iqtisodiyot ulushini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotda yashirin aylanma darajasini qisqartirish va qonuniy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlarining berilishini e'tirof etgan.

Iqtisodchi olim Sh.M. Sadikov o'zining ilmiy ishida mamlakatning sanoat korxonalaridagi elektron hujjat almashinuvini tadqiq qilgan, va bir qator ishlarni amalga oshirgan:

- korxonalarini boshqarish tizimidagi asosiy muammolarni aniqlagan, bozor iqtisodiyotida axborot texnologiyalarini o'rnini aniq ko'rsatib bergan;

- axborot texnologiyalari asosida korxonani boshqarish tizimi tuzilishining umumiy tamoyillarini guruhlagan;

- korxonada va tashkilotlarda kompyuter texnikasi hamda axborot kommunikatsion vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilgan;

- iqtisodiy o'sishning zamonaviy axborot resurslari rivojiga bevosita bog'liqligini ilmiy asoslagan;

- hujjatlar boshqaruv tizimi arxitekturasiga qo'yiladigan talablarni mutanosib ravishda guruhlashtirgan;

- elektron hujjat aylanishini boshqarish tizimlarini baholashning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlagan;

- axborot tizimlaridan foydalanuvchilarning o'zaro munosabatlari turlarini tahlil etgan;

- elektron hujjat aylanishini boshqarish tizimlarida tadbqiq qilish jarayonlaridagi risklarni asosiy omillari bo'yicha guruhlagan;
 - hujjatlarni elektron boshqarish tizimini va joriy qilish algoritmini yaratgan;
 - hujjat aylanishini boshqarish tizimlarining samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqqan.

Shuningdek olim o'zining gipotezasini yaratgan, bunda elektron hujjat aylanish tizimlarini joriy qilib korxonalar va tashkilotlarda iqtisodiy hamda boshqaruv samaradorligi keskin oshishiga olib kelishini ilgari surgan (Sadikov, 2012).

Ayrim internet manbalarida yozilishicha EHA - bu kompaniyaning qog'oz hujjatlarini raqamli tizimga aylantirish va tashqi hujjatlarni onlayn almashish. Barcha zamonaviy va yangi joriy qilinayotgan tizimlar kabi elektron hujjat aylanish tizimini ham joriy qilinishi natijasida bir qator ijobiy hamda salbiy holatlar vujudga keladi. Bu holatlarni quyidagi solishtirma jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Nurmetov va Saidovlar (2013) tomonidan chop etilgan risolada birinchi navbatda ichki va idoralararo elektron hujjat aylanishi tizimlarini tashkil etish muhimligini ta'kidlab o'tganlar. Elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimi bu ish yuritish tizimidagi hujjatlar aylanishining hayotiy davomi bo'lib hisoblanadi.

1- jadval

EHA tizimining afzalliklari va kamchiliklari⁵

Ijobiy	Salbiy
hamkorlar va mijozlar bilan muloqotni yaxshilash	ma'lumotlar bazasini buzish ehtimoli mavjud
mehnat unumdorligini oshirish (jarayonlarni nazorat qilish, hujjatlarga tezkor tuzatishlar kiritish)	katta yosh toifasidagi xodimlarni moslashtirishda qiyinchiliklar
hujjatlarni chop etish uchun moliyaviy va vaqt xarajatlarini istisno qilish	yuqori narx
ofis texnikasini saqlash, arxivlarni saqlash, jo'natish hujjatlarini kamaytirish	ba'zi kontragentlar bilan ishlashda elektron hujjatning qog'oz nusxasiga ehtiyojning borligi
muntazam ish oqimini qayta ishlashni optimallashtirish va avtomatlashtirish	kompaniyaning kontragentlarida EHA yo'qligida samaradorlik pasayadi
inson omilini ta'sirini pasayishi hisobiga xatolar sonini kamaytirish	
hujjatlarni uzoq muddatli saqlash kafolatlari va ularni tiklash imkoniyati	

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga kelib tushayotgan qog'oz korrespondensiyalarning 80-85 foizini tijorat banklariga kelayotgan xatlar tashkil qiladi va ularning 90 foizi mutaxassislar qayta ishlash uchun beriladigan hisobotlardan iborat. Hosil qilinayotgan har bir hisobot o'zida tijorat banklariga oid o'nlab iqtisodiy ko'rsatkichlarni majassam qiladi. Ushbu hisobot va ma'lumotlarning qog'oz ko'rinishida ishlanishi, albatta, juda sarmashaqqat ish hisoblanadi. Mazkur hisobotlar Markaziy bankka kelganidan so'ng, ularni qayta ishlash, turli iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha umumlashtirish va tahlil qilish ishlari mutaxassislar ish vaqtining asosiy qismini band etadi. Bundan tashqari, tijorat banklari o'z vaqtida jo'natilmagan hisobotlar va ayrim ma'lumotlarni telefon, faks, va boshqa vositalar orqali uzatishga majbur edi. Bunday hol ish jarayonida quyidagi holatlarini keltirib chiqaradi:

mutaxassislar ish vaqtining hisobotlarni yig'ish va umumlashtirish uchun sarf qilishi;
 tezkor ravishda davriy ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatining mavjud emasligi;

⁵ <https://www.kadry.uz/article/821-elektron-ujjat-aylanishini-amalga-oshirish-bosichma-bosich-reja#ttl1>

mutaxassislarining kompyuterlariga kelib tushadigan va saqlanadigan ma'lumotlarning yo'qolish xavfining mavjudligi;

turli hisobotlarda bir xildagi takrorlanish hollarini ko'plab uchrashi;

hisobotlarni uzatish, yig'ish va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarning asossiz ravishda ortib ketishi keltirib o'tilgan. Shuningdek, olimlar tomonidan hujjatlarning asosiy funksiyalari aks ettirilgan rasm ham keltirilgan (Nurmetov, Saidov, 2013).

Keyingi tadqiqotning yana bir yo'nalishi turli manfaatdor tomonlarning o'qituvchilar, talabalar va ma'murlar kabi ta'limdagi elektron hujjat aylanishi tizimlariga nisbatan qarashlari va munosabatlarni o'rganishlari rejalashtirilgan.

A.N.Aripov va boshqalar o'zlarining kitoblarida davlat boshqaruvida AKTni joriy etish masalalari o'z mohiyatiga ko'ra muammolarning juda murakkab doirasini o'z ichiga olishini qayd etganlar. Bu uni shakllantirishga yondashuvlarni ishlab chiqishdan elektron davlat xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va uni amalda ta'minlashgacha bo'lgan muammolari sifatida e'tirof etganlar.

O'zbekiston axborot jamiyatini shakllantirishning boshlang'ich bosqichida turgan holda maqsadga muvofiq va maqbul modelni tanlashdek murakkab muammo oldida turibdi. Biz ko'rib chiqqanimizdek, har bir mamlakatda axborot jamiyatini tashkil etishning jahon tajribasi o'z xususiyatlariga ega va tayyor etalon bo'ladigan tavsiyalarni bermaydi.

Har bir aniq holatda davlat boshqaruvida AKTni tadqiq etish mamlakatning o'zining siyosiy-iqtisodiy yo'nalishlariga, davlat tuzilishining xususiyatlariga, davlatning biznes subyektlari va aholi bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi darajasiga hamda rivojlanishning mazkur bosqichida hal etilayotgan vazifalar doirasiga bog'liq ekanligini qayd etish zarur. Ya'ni, AKTning boshqaruv tizimlarini qurish paradigmasi jahon hamjamiyatida mamlakatlar qancha bo'lsa shuncha ko'pdir.

O'zbekistonda AKTga asoslangan davlat boshqaruvinin mavjud sxemalardan qaysi biri bo'yicha qurish kerak? Vatanimiz AKT sohasida ilgari hech qachon bunday ijtimoiy ahamiyatli, texnik jihatdan murakkab, mas'uliyatli, ilm-fanni va resurslarni ko'plab talab qiladigan vazifa hal etilmagan.

Mana shularni hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishni ta'minlash, shu jumladan quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq tuyuladi:

- mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini izchil amalga oshirish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining normativ-huquqiy bazasi monitoringi, ularni joriy etishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash;

- AKTni rivojlantirish monitoringi va uning holatini to'liq xatlovdan o'tkazish, hujjatlarning elektron aylanishi tizimlarini joriy etish jarayonlarini, davlat boshqaruvi organlarining moliyaviy, texnik va odam resurslari holatini o'rganish,

- davlat boshqaruvi organlarining yagona axborot tarmog'ini tashkil etish;

- davlat xizmatchilari va aholini o'qitish bo'yicha maqsadli tadbirlarni amalga oshirish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat byudjetidan ustuvor moliyalashtirish siyosatini shakllantirish va boshqalar.

Olimlar tadqiqot qilgan davriga qarab ularni uch guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh, nazariy bilimlar orqali elektron hujjat aylanish tizimiga o'tishning afzalliklarini o'rgangan olimlar;

ikkinchi guruh, elektron hujjat aylanish tizimi amaliyotga joriy qilingan davrdagi ijobiy hamda salbiy oqibatlarni tahlil qiluvchilar;

uchinchi guruh, elektron hujjat aylanish tizimi joriy qilinishi bilan shu sohadagi bilimlarni oshirish va xavfsizlik tomonlarini ko'proq etibor berish yuzasidan tadqiqot olib boruvchilarga ajratish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning fikrlariga e'tibor qaratilsa, elektron hujjat aylanish tizimi zamonaviy axborot texnologiyalarining globalashuvi bilan birga kirib kelgan yangi bir tizim hisoblanadi.

Bu borada ilmiy izlanish qilgan olimlar har biri elektron hujjat aylanish tizimining turli jabhalarini o'rgangan va xulosalarini bergan. Tadqiqot ishining birinchi bobida keltirilgan olimlarning fikrlari va mulohazalariga tayangan holda elektron hujjat aylanishiga quyidagicha o'zimizning ta'rifimizni berishimiz mumkin.

Ya'ni elektron hujjat aylanishi bu xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar tomonidan iqtisodiy - ijtimoiy voqea hodisalarni qonun talablariga mos ravishda ma'lum bir tashuvchi moslamalarga kiritish saqlash, qayta ishlash va uzatishdan iborat operatsiyalar ketma-ketligidir.

Shuningdek, olimlar o'zlarining ilmiy asarlarida elektron hujjat aylanish tizimining turli sohalar va zamonlardagi xususiyatlari hamda iqtisodiy mohiyatini ochib berganlar. Elektron hujjat aylanish tizimi barcha tizimlardagi kabi soliq tizimida ham katta ahamiyat kasb etadi va soliq tizimidagi jadal olib borilayotgan siyosatning qo'llab quvvatlanishiga yordam beradi. Ammo axborot texnologiyalari rivojlangan sari uning o'rganilmagan sohalarini ko'pligi aniqlanib boraveriladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish jarayonida yana bir kamchilik tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Ya'ni ko'chmas mulkini ijaraga beruvchi tashkilotlar kommunal to'lovlar uchun hisobvaraqa-fakturalarni qabul qilishadi va ularning qo'shilgan qiymat solig'i summalarini hisobga oladilar. Xarajatlarni qoplash maqsadida ijarachilarga hisobvaraqa fakturalarni qayta taqdim qiladilar, ammo o'zlariga tegish bo'lmagan hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi juda ko'p hollarda hisobdan chiqarilmaydi. Buning echimi sifatida xarajatlarni qoplash tariqasida taqdim qiladigan elektron hisobvaraqa-fakturalarga qabul qilingan elektron hisobvaraqa-fakturalarni bog'lash orqali erishiladi. Bunda kirim qilingan summadan chiqim summasini ortib ketmasligi nazorat qilinadi va qo'shilgan qiymat solig'i hisobotida hisobdan chiqariladigan summalar qatoriga avtomat ravishda xarajatlarni qoplash tariqasida rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa-fakturalarda aks ettirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobdan chiqariladi. Agar shu tartibda avtomatlashtirilmasa soliq to'lovchilar tomonidan hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi faqat tekshirish jarayonida aniqlangandan keyin byudjetga undirilishi ta'minlanadi, ammo avtomatlashtirish natijasida bir summani ikki marta hisobga olinishi cheklanadi.

Adabiyotlar/Литература/ Reference:

Nurmetov D.B., Saidov F.M. (2013) Elektron hujjat aylanishi: xorijiy va milliy ququqiy tizim tahlili, risola, Toshkent, Istiqlol nuri, 88-bet.

Sadikov Shuxrat Maxamadjonovich (2012) Korxonalar va muassasalarda elektron hujjat almashuvini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, Iqtisodiy fanlar nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 154-bet.

Бисултанов Амир Нажмудиевич (2019) Развитие методико-инструментальной базы налогового администрирования условиях цифровизации экономики, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Владикавказ. - 26.

Жарков А.А. (2014) Система электронного документооборота/ А.А. Жарков// Наука, техника и образование. -№3(3).- 65-71 бетлар.

Кортиков Федор Сергеевич (2013) Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, -19 с.

Кукарина Юлия Михайловна (2004), *Формирование и развитие понятия "электронный документ" в зарубежном и Российском законодательстве, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук, Москва, - 32.с.*

Лелина Юлия Владимировна (2009) *Формирование территориально-распределенной системы электронного документооборота в организациях административного и отраслевого образований, автореферат кандидат экономических наук, Москва, -18 с.*

Нгуен Дин Хынг (2012) *Организация системы электронного документооборота на основе агентных технологий, автореферат кандидат технических наук, Волгоград, -24 с.*

Петров Юрий Юревич (2003) *Методы управления промышленным предприятием на основе электронного документооборота, автореферата кандидат экономических наук, Санк-Петербург, -23.с.*

Самотуга Александр Евгеньевич (2017) *Распознавание субъектов и их психофизиологических состояний на основе параметров подписи для защиты документооборота автореферат диссертаци на соискание ученой степени кандидата технических наук, ОМСК, -18.с.*

Столбов А.П. (2007) *Организаци электронного документооборота в здравоохранении/ Столбов А.П.// Врач и информационные технологии. -№5-33-39 бетлар*

Уколов, Виктор Сергеевич (2009) *Инструментальные методы экономики в процессах аутентификации электронных документов на основе ортогонального преобразования, автореферат кандидат экономических наук, Москва, 24 с.*

Черватюк Василий Демянович (2020) *Модель и алгоритмы хранилища данных электронного архива технической документации и электронного документооборота научно-производственной организации, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, -20 с.*

Шрэйтэр К.О. (2015) *Электронный документооборот: возможности и преимущества./К.О.Шрэйтэр// Молодой ученый. №2.-с.52-55*

Шукаев Александр Иванович (2006), *Моделирование электронного документооборота бизнес-процессов в организациях сложной структуры, диссертаци на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва, -25 с.*